


# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


## Asosiy tarkib




## Dastlabki ma'lumotlar

Toshkent shahri bo'yicha 2020-yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **26 840,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **103,2** % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **9 115,1** mlrd. so'mni, o'zgarish sur'ati (**122,8** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **17 724,9** mlrd. so'mni (**95,4** % ga kamaydi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **596,0** mlrd. so'mni (**64,4** % ga kamaydi) tashkil etdi.


## Tarkibiy qism, ulushlarda



## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



## Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






# HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

## UMUMIY MA'LUMOT

Toshkent shahri bo'yicha 2020-yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **26 840,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **103,2%** ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan Toshkent shahrining barcha tumanida chakana savdo aylanmasining o'sishi kuzatildi. Yirik biznes tarkibida yuqori o'sish sur'atlari kuzatilmoqda.




## ENG YUQORI ULUSH

Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Chilonzor tumani **15,1 %** ulush bilan **4 052,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## ENG QUIYI ULUSH

Shahar chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Mirzo Ulug'bek tumani **6,3%** ulush bilan **1 685,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Toshkent shahri

Uchtepa

Bektemir

Yunusobod

Mirzo Ulug'bek

Mirobod

Shayxontohur

Olmazor

Sirg'ali

Yakkasaroy

Yashnobod

Chilonzor

Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

2019-yil yanvar-avgust  
2020-yil yanvar-avgust


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi umumiy savdo hajmining **66,0** foizini tashkil etdi. Chakana savdo tovar aylanmasining asosiy ulushi Bektemir (94,0 foiz), Uchtepa (92,0 foiz), Mirzo Ulug'bek (76,4%), Olmazor (69,1%), Yunusobod (68,1%) va Yashnobod (67,0%) tumanlarida kuzatildi.



**CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan Toshkent shahrining barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Yunusobod (111,8 %), Shayxontoxur (106,9%), Sirg'ali (106,5 %) tumanlarida qayd etildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda**





	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahri</b>	<b>26 840,1</b>	<b>103,2</b>	<b>9 115,1</b>	<b>122,8</b>	<b>17 725,0</b>	<b>95,4</b>
Uchtepa	2 964,9	98,0	236,8	86,5	2 728,2	99,2
Bektemir	1 825,5	96,4	109,0	119,3	1 716,5	95,2
Yunusobod	3 225,4	111,8	1 028,4	234,4	2 197,0	89,8
Mirzo Ulug'bek	1 685,0	98,2	397,9	94,6	1 287,1	99,3
Mirobod	1 726,6	102,4	823,7	139,5	902,9	82,4
Shayxontohur	3 039,2	106,9	1 292,4	146,5	1 746,7	89,0
Olmazor	1 831,7	97,3	565,9	79,4	1 265,9	108,2
Sirg'ali	2 024,4	106,5	900,5	133,1	1 124,0	91,7
Yakkasaroy	2 579,5	101,5	994,9	94,5	1 584,6	106,4
Yashnobod	1 885,1	103,2	621,4	128,8	1 263,7	94,0
Chilonzor	4 052,8	106,7	2 144,3	119,1	1 908,4	95,5

# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

## Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda





Chakana tovar ayirboshlash tarkibida yirik korxonalarining tovar ayirboshlash hajmi 22,8 foizga o'sdi va 9 115,1 mlrd so'mga yetdi, bu uning umumiy hajmining 34,0% ni tashkil etadi.




## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning chakana tovar aylanmasi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 17 724,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,6% ga kamaydi. Chakana tovar ayirboshlashda ushbu sohaning shahardagi ulushi 66,0% ga yetdi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning boshqa hududlariga nisbatan eng katta ulushini Bektemir (94,0%), Uchtepa (92,0%), Mirzo Ulug'bek (76,4%), Olmazor (69,1%), Yunusobod (68,1%) va Yashnobod (67,0%) tumanlari tashkil etdi. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar ayirboshlash ulushi umumiy sotishning 34,0% ni tashkil etdi. Ularning asosiy ulushi Chilonzor (52,9%), Mirobod (47,7%), Shayxontohur (42,5%) va Sergeli (44,5%) tumanlarida kuzatildi.





## TOSHKENT SHAHRI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Toshkent shahrida aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yil yanvar-avgust oylarida o'rtacha **10 334,2** ming so'mni tashkil etdi (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,3 foizga kamaydi).


Ushbu ko'rsatkich boshqa hududlarga nisbatan Bektemir (52 305,6 ming so'm), Yakkasaroy (21 658,1 ming so'm) va Chilonzor (16 211,0 ming so'm) tumanlarida ko'proq qayd etildi.



District	Hajm, ming so'm	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da
Toshkent sh.	10 334,2	100,3
Uchtepa	10 860,6	95,8
Bektemir	52 305,6	93,9
Yunusobod	9 357,1	107,9
Mirzo Ulug'bek	6 082,9	96,3
Mirobod	12 421,5	101,1
Shayxontohur	8 876,0	105,5
Olmazor	4 978,9	95,3
Sirg'ali	9 977,6	96,9
Yakkasaroy	21 658,1	101,5
Yashnobod	7 653,8	98,4
Chilonzor	16 211,0	104,4


## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Jismoniy shaxslar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlarning dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, uyushmagan savdo hajmi 2020-yil yanvar-avgust oylarida **596,0** mlrd. so'mni tashkil qildi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan **35,6** % ga kamaydi. Jumladan, dehqon bozorlarida savdo aylanmasi **503,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati - **70,9**) chorvachilik bozorida savdo aylanmasi **23,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati - **32,2** %) tashkil etdi.


### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar





**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020-yilning yanvar-avgust oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **572,8** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **23,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahri</b>	<b>596,0</b>	<b>64,4</b>	<b>572,8</b>	<b>68,2</b>	<b>23,23</b>	<b>26,9</b>
<i>tumanlar:</i>						
<b>Uchtepa</b>	35,0	38,5	35,0	38,5	-	-
<b>Bektemir</b>	193,1	141,7	169,9	68,2	23,21	<b>26,9</b>
<b>Yunusobod</b>	96,8	90,0	96,8	90,0	-	-
<b>Mirzo Ulug'bek</b>	50,2	52,0	50,2	52,0	-	-
<b>Mirobod</b>	12,2	23,3	12,2	23,3	-	-
<b>Shayxontohur</b>	52,3	70,1	52,3	70,1	-	-
<b>Olmazor</b>	12,6	17,7	12,6	68,2	0,02	<b>26,9</b>
<b>Sirg'ali</b>	22,8	46,5	22,8	46,5	-	-
<b>Yakkasaroy</b>	19,4	28,3	19,4	28,3	-	-
<b>Yashnobod</b>	93,2	103,1	93,2	103,1	-	-
<b>Chilonzor</b>	8,4	9,5	8,4	9,5	-	-

# UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



8,5  
mlrd. so'm

**Tuzlamalar**



271,4  
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**



22,0  
mlrd. so'm

**Quritilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**  
(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)

42,5  
mlrd. so'm



**Non va non  
mahsulotlari**



39,0  
mlrd. so'm

**Sut va sut  
mahsulotlari**

7,4  
mlrd. so'm



**Tuxum**

86,4  
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari** (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)

0,6  
mlrd. so'm



**Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-xashaklar**

8,8  
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari** (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)

2020-yil yanvar-avgust oylarida Toshkent shahrining barcha tumanlaridagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini (shaxsiy yordamchi tomorqalarida yetishtirilgan) sotish bilan shug'ullanuvchi shaxslar bilan so'rov o'tkazildi, natijada ushbu savdo turining aylanmasi **518,8** milliard so'mni tashkil etdi.

8,3  
mlrd. so'm



**Ziravorlar**

78,0  
mlrd. so'm



**Tovuq go'shti**



2020-yil yanvar-avgust oylarida Toshkent shahrining barcha tumanlarida parrandachilik va chorva mollarini sotish bilan shug'ullanadiganlar (shaxsiy fermalarda saqlanadigan) bilan so'rov o'tkazildi, natijada ushbu savdo aylanmasi **23 227,4** million so'mni tashkil etdi. Turli yoshdagi qoramollarni sotish **15 432,9** mln. so'mga, qo'y va echkilar - **6 489,4** mln. so'mga, otlar - **1 286,0** mln. so'mga, qushlar - **19,2** mln so'mga yetdi.






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK  
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**

2020-yil yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 4,8 % ni tashkil etib, 1 283,0 mlrd so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 15,8 % ga kamaydi, ularning 77,5 foizi kichik korxonalar hissasiga to'g'ri keladi.


Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o'sish sur'ati, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
<b>Toshkent shahar</b>	<b>1 283,0</b>	<b>84,2</b>	<b>288,4</b>	<b>85,6</b>	<b>994,6</b>	<b>83,8</b>
<i>tumanlar:</i>						
Uchtepa	54,0	78,0	1,9	27,0	52,1	83,7
Bektemir	28,4	90,7	4,4	80,8	24,0	92,8
Yunusobod	205,2	71,3	43,6	46,8	161,6	83,0
Mirzo Ulug'bek	142,9	85,9	11,1	103,4	131,8	84,7
Mirobod	118,0	83,1	7,3	58,0	110,7	85,5
Shayxontohur	161,2	93,4	75,5	137,9	85,7	72,8
Olmazor	99,3	97,5	6,7	3 078,0	92,6	91,1
Sirg'ali	69,0	43,7	37,2	33,3	31,8	68,6
Yakkasaroy	135,9	89,7	14,5	67,6	121,4	93,4
Yashnobod	72,4	72,1	1,7	23,8	70,6	75,9
Chilonzor	196,9	138,1	84,6	663,6	112,3	86,5


## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo hajmi **36 024,7** mlrd so'mga yetdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish **2,3%** ni tashkil etdi. Kichik biznesning ulgurji savdo aylanmasi statistik hisob-kitoblarga ko'ra **25 277,5** mlrd. so'm bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **14,4%** ga kamaydi. Toshkent shahridagi ulgurji savdo aylanmasida ushbu sektorning ulushi **70,2%** ni tashkil etdi.


### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar








**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR  
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O‘SISH SUR‘ATLARI**



O‘tgan yilga nisbatan yirik korxonalarining ulgurji savdo aylanmasida eng yuqori o‘shish sur‘atlari Yashnobod (163,6%), Chilonzor (113,9%) va Yunusobod (109,5%) tumanlarida qayd etildi.

**Ulgurji savdo aylanmasi o‘shish sur‘ati, foizda**



	Jami, mlrd. so‘m	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so‘m	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Toshkent shahar	36 024,7	102,3	10 747,2	189,6	25 277,6	85,6
Uchtepa	2 037,4	87,8	163,1	203,7	1 874,3	83,7
Bektemir	684,0	91,3	81,4	262,4	602,6	83,9
Yunusobod	3 074,6	109,5	721,5	226,3	2 353,1	94,5
Mirzo Ulug'bek	3 575,1	91,9	749,1	107,7	2 826,0	88,5
Mirobod	3 884,2	98,7	754,3	209,0	3 129,9	87,5
Shayxontohur	2 122,2	84,8	246,7	263,9	1 875,6	77,9
Olmazor	4 408,1	95,7	1 259,3	126,9	3 148,8	87,1
Sirg'ali	2 149,7	77,0	547,1	73,4	1 602,6	78,3
Yakkasaroy	3 705,2	91,8	1 216,1	125,2	2 489,1	81,2
Yashnobod	5 799,5	163,6	3 305,8	674,0	2 493,6	81,7
Chilonzor	4 584,7	113,9	1 702,8	191,3	2 881,9	91,9

# YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



2019-yil  
yanvar-  
avgust  
2020-yil  
yanvar-  
avgust

Hisobot davrida ulgurji savdo aylanmasi tarkibida kichik biznes aylanmasining ulushi umumiy sotishning **70,2%** ni tashkil etdi. Ularning asosiy ulushi Uchtepa (92,0%), Shayxontohur (88,4%), Bektemir (88,1%), Mirobod (80,6%) va Mirzo Ulug'bek (79,0%) tumanlarida kuzatildi.

